

**BOLA SHAXSINING SHAKLLANISHIDA OILAVIY
MUHITNING AHAMIYATI***Xujamqulova Mohitob Ali qizi**Jizzax viloyati Sharof Rashidov tuman**2-maktab amaliyotchi-psixologi***ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada bola shaxsining shakllanishida oilaviy muhitning oʻrni va ahamiyati yoritilgan. Oiladagi tarbiya usullari, ota-onalar va farzandlar oʻrtasidagi munosabatlar, psixologik muhit hamda ularning bolaning intellektual, axloqiy va ijtimoiy rivojlanishiga taʼsiri tahlil qilingan. Shuningdek, sogʻlom oilaviy muhitni shakllantirishning psixologik jihatlari koʻrib chiqilgan.

Kalit soʻzlar: oila, oilaviy muhit, bola shaxsi, tarbiya, psixologik rivojlanish, ota-ona, ijtimoiylashuv, maʼnaviy qadriyatlar, shaxs kamoloti, oilaviy munosabatlar.

KIRISH

Oila jamiyatning eng muhim ijtimoiy instituti boʻlib, inson hayotidagi dastlabki tarbiya va rivojlanish maskani hisoblanadi. Bola dunyoga kelgan ilk kunlaridanoq oila muhiti taʼsirida voyaga yetadi. Uning xarakteri, dunyoqarashi, qadriyatlari va xulq-atvori avvalo oilada shakllanadi. Shu sababli bola shaxsining barkamol rivojlanishida oilaviy muhit hal qiluvchi omillardan biri sanaladi. Oiladagi sogʻlom psixologik muhit bolaning ruhiy salomatligi va shaxsiy rivojlanishi uchun muhim asos yaratadi. Mehr-muhabbat, oʻzaro hurmat va ishonch hukm surgan oilada voyaga yetayotgan bola oʻzini xavfsiz his qiladi, oʻz fikrlarini erkin ifoda etadi va atrofdagilar bilan sogʻlom munosabatlar oʻrnatishni oʻrganadi. Bunday muhit bolada oʻziga ishonch, mustaqillik va masʼuliyat kabi ijobiy sifatlarning shakllanishiga yordam beradi.

Ota-onalarning tarbiya uslubi ham bola shaxsining rivojlanishiga bevosita taʼsir koʻrsatadi. Farzandga nisbatan adolatli, mehribon va talabchan munosabat bolaning ijtimoiy moslashuvi hamda axloqiy kamolotiga ijobiy taʼsir qiladi. Aksincha, haddan tashqari qattiqqoʻllik, befarqlik yoki ortiqcha erkalatish bolaning shaxsiy rivojlanishida turli qiyinchiliklarni yuzaga keltirishi mumkin. Oilada mavjud boʻlgan muloqot madaniyati ham bola tarbiyasida muhim ahamiyatga ega. Ota-onalar va farzandlar oʻrtasidagi samimiy suhbatlar, oʻzaro tushunish va qoʻllab-quvvatlash bolada ijtimoiy koʻnikmalarni rivojlantiradi. Muloqot jarayonida bola oʻz his-tuygʻularini ifodalashni, boshqalarni tinglashni va muammolarni tinch yoʻl bilan hal etishni oʻrganadi.

Bola shaxsining shakllanishida oilaning maʼnaviy muhiti ham alohida oʻrin tutadi. Oilada milliy qadriyatlar, odob-axloq meʼyorlari va umuminsoniy fazilatlarining

singdirilishi bolada yuksak ma'naviy sifatlarni rivojlantiradi. Ota-onaning shaxsiy namunasi esa tarbiyaning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy davrda axborot texnologiyalarining keng tarqalishi oilaviy tarbiya oldiga yangi vazifalarni qo'yimoqda. Ota-onalar bolalarni internet va ijtimoiy tarmoqlardan oqilona foydalanishga o'rgatishlari, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishlari hamda salbiy axborotlardan himoya qilishlari zarur.

Oiladagi nizolar, kelishmovchiliklar va zo'ravonlik holatlari esa bolaning ruhiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday vaziyatlarda bolalarda xavotirlanish, qo'rquv, agressivlik yoki o'ziga ishonchsizlik kabi muammolar yuzaga kelishi mumkin. Shu sababli oilada sog'lom psixologik muhitni saqlash va nizolarni konstruktiv hal etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bolaning oilada shaxs sifatida shakllanishiga kuchli ta'sir etuvchi omillarning asosiysi bevosita muhit va mikromuhitdir. Avvalo, bu bolaning qobiliyatlarini rivojlantiruvchi, xarakterini shakllantiruvchi jamoa, uning ota-onasi, qarindoshlari, tengdoshlari, maktabgacha ta'lim muassasasasi tarbiyachilari, maktab pedagoglar jamoasi va boshqalardir.

Mikromuhit insonga ikki yoqlama ta'sir ko'rsatadi:

- jamiyat tomonidan tashkil etilgan stereotiplar ya'ni, an'analar, qoidalar, me'yor va kundalik hayotdagi odatiy sharoitlar orqali;
- shuningdek, yaqin muhitning o'ziga xos bo'lgan xususiyatlari natijasida bolalarda xarakter xususiyatlarining shakllanishiga eng muhim omil sifatida birinchi navbatda oila muhiti eng kata tasir ko'rsatadi.

Birinchi rezidentimiz ta'kidlaganidek, "Oila hayotining abadiyligi, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak nasllar qanday inson bo'lib etishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'i ekanligini tan olishimiz darkor. Bola tug'ilganidan boshlab oila muhitida yashaydi, ulg'ayadi, oilaga xos an'analar, qadriyatlar, urf-odatlar o'smir zuvalasini shakllantiradi. Eng muhimi farzandlar oilaviy hayot maktabi orqali jamiyat talablarini anglaydi, his etadi". Darhaqiqat, kelajagimiz poydevori bo'lgan yoshlarning ta'lim-tarbiyasi, avvalo, oilada shakllanadi. Shaxsga xos bo'lgan xarakter xislatlari, shuningdek, millatimizga xos bo'lgan etnik xususiyatlarimizdan, kattalarni e'zozlash, kichiklarni izzat qilish, Vatanni sevish va burch kabi hislatlarning barchasi oilada shakllanadi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, bolalarda xarakter xususiyatlarining shakllanishiga ta'sir etuvchi bir qator komponentlari oilada shakllanib borishi bilan birgalikda, nosog'lom bo'lgan oila sharoitida tarbiya topayotgan farzandlar xulqatvorida o'ziga xos bo'lgan salbiy individual psixologik xususiyatlarning shakllanishiga sabab bo'lmoqdadir.

Bir guruh psixologlarning aniqlashicha, xarakterning yangi sifatlarini yuzaga kelishi va ularning mustahkamlanishi real vaziyatni taqozo etadi. Shuning uchun ham xatti-harakat odatni, odat esa xarakterni va xarakter taqdirni yaratadi, degan fikr

mavjud. Xarakter qandaydir turg'un va o'zgarmas xususiyat emas. Jumladan, bolalik yoshida xarakterning xususiyatlari odatda "jiddiylashish", "boshqacharoq bo'lib qolish" tarzida ko'rinadiki, bu hol ijtimoiy omillardan ya'ni, atrofdagilarga nisbatan munosabatning murakkablashuvi, gormonal yetilish natijasida namoyon bo'la boshlaydi. Shaxs xarakterdagi o'zgarishlarni yetarlicha hisobga olmaslik ziddiyatli va nizoli munosabatlarni vujudga keltiradi. Ayni shu davrda bola xarakterida aktsentuatsiya xususiyatlari, jumladan, emansipatsiya reaksiyasi kattalar qaramog'idan "ozod" bo'lishlik, tengqurlari bilan guruhlashish reaksiyasi, ishtiyoq reaksiya, xobbi reaksiyasi kabilar ustivorlik qiladi.

Aynan bolalar o'rtasida sodir etilayotgan deviant (xulqi og'ishgan) xulq-atvor ko'rinishlari jumladan, jinoyatchilik, giyohvandlik, agressivlik, suitsid kabi turli jamiyatimiz uchun yot bo'lgan illatlar oilada shaxslararo munosabatlarning to'g'ri tashkil etilmaganligidan kelib chiqmoqda. Bunda, ota-onalar farzandlari tarbiyasiga befarq, loqayd munosabatda bo'lishi, oilada sog'lom turmush tarzini to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi, ota-onalarni farzandlarining yoshiga xos bo'lgan psixologiyasini, ularga xos bo'lgan shaxslararo munosabatlar to'g'risidagi bilimlarini yetishmasligi tufayli jamiyatimiz uchun zid bo'lgan xatti-harakatlarning yuzaga kelayotganligi, natijada, ilmiy asoslangan ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi munosabatlarning psixologik jihatlarini ochib berishligini taqozo etadi.

To'g'ri, hozirgi globallashtiruv va integratsiyalashuv jarayonlarining kuchayishi munosabati bilan oilaning etnopsixologik xususiyatlaridagi milliy barqarorlik susayib, zamonaviylashish tendentsiyasi yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Bu fikrga V.V.Boyko ham qo'shilib, bolalarda xarakter shakllanishiga ta'sir etuvchi zamonaviy oilalarning o'ziga xos xususiyatlarini quyidagicha ajratib ko'rsatadi:

-Birinchi, oilaning nuklearlashib borishi oqibatida yani oilada er-xotin va farzandlardan iboratligi zamonaviy kam farzandli nuklear oilalarning ko'p avlodli oilalardan farqli ravishda bola xarakterining shakllanishida o'ziga xos ijtimoiypsixologik muhitni tashkil etadi. Bunday oilalarda ko'pincha shaxslararo munosabatlarning qisqa zanjiri ustunlik qiladi, oila a'zolarining o'zaro bir-biriga ta'sir etish vositalari chegaralangan, shuningdek, taqlid qilish uchun namuna va vaziyatlar ham kam shakllanganligi bilan farqlanadi.

-Ikkinchi, oiladagi o'ta bog'liq va bir xildagi munosabatlar oqibatida bolalarning ota-ona xulqi namunalarini mustahkam egallashlari ehtimolligini oshiradi. Ota-onalar xulq-atvoridan tanlab olish chegaralangan bo'lganligi sabab, bolalar ijtimoiy-tipik xususiyatlarni egallashi, qaysiki, o'zida ham mikromuhit, ham individual xususiyatlarining aks etishi ehtimolidan holi emasdir.

Zamonaviy oilalarda farzand tarbiyasi bilan bog'liq masalalar tobora murakkablashib bormoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ayrim oilalarda bolalarning ma'naviy, axloqiy va ijtimoiy rivojlanishi uchun zarur bo'lgan insoniy munosabatlar

yetarli darajada shakllanmagan. Oila a'zolari o'rtasidagi samimiy muloqotning kamayishi, bir-birini tinglash va tushunish ko'nikmalarining sustligi bolalarning shaxs sifatida kamol topishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ba'zi oilalarda bag'rikenglik, o'zaro hurmat va hamjihatlik kabi fazilatlar yetarli darajada namoyon bo'lmaydi. Natijada farzandlarda o'z manfaatlarini boshqalarnikidan ustun qo'yish, kattalarning fikriga qarshi chiqish, ota-onaning maslahat va ko'rsatmalariga befarq munosabatda bo'lish holatlari kuzatiladi. Bunday vaziyatlar bolaning oiladan uzoqlashishiga, yaqinlari bilan ruhiy aloqalarning susayishiga sabab bo'lishi mumkin.

Oiladagi iliq munosabatlarning yetishmasligi bolalarni o'z ehtiyojlarini boshqa muhitlarda qondirishga undaydi. Ular ko'proq vaqtini tengdoshlari orasida yoki turli axborot manbalari bilan o'tkazishga intiladi. Shaxslararo munosabatlarning qoniqarsizligi esa ayrim hollarda bolalarning norasmiy guruhlariga qo'shilishiga yoki salbiy mashg'ulotlarga qiziqish bildirishiga olib keladi.

Mutaxassislarining ta'kidlashicha, ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi munosabatlar xarakteri bolaning shaxsiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Haddan tashqari qattiqqo'llik, doimiy nazorat va keskin talabchanlik bolalarda qo'rquv, tajovuzkorlik yoki norozilik hissining shakllanishiga sabab bo'lishi mumkin. Ota-onaning qo'polligi va mehrning yetishmasligi esa bolada agressiv xatti-harakatlarning paydo bo'lishiga hamda oiladagi ziddiyatlarning kuchayishiga olib keladi.

Boshqa bir holatda, ota-onaning bolani muntazam tanqid qilishi, kamsitishi yoki uning muvaffaqiyatlarini qadrlamasligi farzandda o'ziga bo'lgan ishonchning pasayishiga sabab bo'ladi. Natijada bola tengdoshlari orasida o'zini erkin tutolmaydi, tashabbus ko'rsatishdan qo'rqadi, mustaqil qaror qabul qilishda qiynaladi va boshqalarga qaram bo'lib qolishi mumkin.

Shuningdek, tarbiyadagi izchillikning yo'qligi ham salbiy oqibatlarga olib keladi. Agar ota-ona bir vaziyatda bolani jazolab, boshqa vaziyatda xuddi shu xatti-harakatga e'tibor bermasa, bolada mas'uliyat, burch va intizom haqidagi tushunchalar to'liq shakllanmaydi. Bunday bolalar xulq-atvor me'yorlarini anglashda qiyinchiliklarga duch keladilar.

Noto'g'ri tarbiya usullari va oilaviy muhitdagi kamchiliklar ayrim bolalarda xulq-atvor muammolarining yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Psixologlar bunday bolalarni shartli ravishda bir necha guruhlariga ajratadilar: salbiy qarashlari mustahkam shakllangan bolalar, qonunbuzar shaxslarga taqlid qiluvchilar, ijobiy va salbiy xatti-harakatlar o'rtasida ikkilanadiganlar, boshqalarning ta'siriga tez beriluvchilar hamda tasodifiy omillar ta'sirida noto'g'ri yo'lga kirib qolgan bolalar.

Shu sababli bolaning sog'lom rivojlanishida oiladagi psixologik muhit, ota-onalarning tarbiyaviy yondashuvi va ta'lim muassasasidagi jamoaning ta'siri alohida ahamiyat kasb etadi. Oila va maktab hamkorligi qanchalik mustahkam bo'lsa,

bolalarda ijobiy fazilatlarni shakllantirish va salbiy xulq-atvorning oldini olish imkoniyati shunchalik yuqori bo‘ladi.

XULOSA

Bola shaxsining shakllanishida oilaviy muhitning ahamiyati beqiyosdir. Oila bolaning ilk tarbiya maskani sifatida uning ruhiy, axloqiy, intellektual va ijtimoiy rivojlanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Oilada yaratilgan sog‘lom psixologik muhit, ota-onalarning mas’uliyatli yondashuvi va ijobiy tarbiya usullari barkamol, ma’naviy yetuk va jamiyatga foydali shaxsni voyaga yetkazishda muhim omil hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Karimova V.M. Oila psixologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
2. Shoumarov G‘.B. Oila psixologiyasi. – Toshkent, 2018.
3. G‘oziyev E.G‘. Yosh davrlari psixologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
4. Nishonova Z.T. Bolalar psixologiyasi. – Toshkent, 2019.
5. Davletshin M.G. Pedagogik psixologiya. – Toshkent, 2020.
6. O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi.
7. O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni.